«O‘ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI»
AJning

2023 yil bo‘yicha yillik hisoboti

Mundarija:

Birja haqida 2

Faoliyatning asosiy natijalari 4

Kuzatuv kengashi raisi murojaati 5

Bosh direktor murojaati 7

O‘zRVB missiyasi, yondashuvi va faoliyat maqsadlari 10

2023-yil uchun asosiy maqsad va vazifalar 12

2023-yil uchun Rivojlanish strategiyasi 13

2023-yilda Rivojlanish strategiyasining amalga oshirilishi 15

Xalqaro hamkorlik va kommunikasiyalar 20

Asosiy tadbirlar 23

Moliyaviy natijalar sharhi 25

Jami daromad (foyda va zarar) to‘g‘risida hisobot 26

Operasion faoliyat natijalari 29

Birja bozorlari sharhi 30

Valyuta bozori 32

Pul bozori 34

Davlat qimmatli qog‘ozlari bozori 37

Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish 41

Ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik 42

Kadrlar siyosati 43

Korporativ boshqaruv 47

Birja haqida

Umumiy ma’lumot

“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ (keyingi o‘rinlarda O‘zRVB deb ataladi) 1992-yil 12-mayda tashkil etilgan va respublikada birja xizmatlarining barcha turlarini, shu jumladan valyuta, pul bozorlari, davlat qimmatli qog‘ozlari va derivativlar bozorlarida savdolarni tashkil etuvchi, shuningdek, pre-treyding va post-treyding xizmatlarini ko‘rsatuvchi eng yirik ko‘p funksiyali birja hisoblanadi.

O‘zRVBning universal savdo dasturiy kompleksi savdo ishtirokchilari va investorlar uchun keng ko‘lamli savdo strategiyalarini taqdim etadi, bu esa turli xil birja instrumentlarida operasiyalarni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etib, likvidlikni boshqarish va investitsiya strategiyalarini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zRVB a’zolari - kapital bozorining professional ishtirokchilari, shu jumladan 35ta tijorat banki va 2ta brokerlik tashkilotlaridan iborat bo‘lgan.

O‘zRVB “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘'risida”gi, “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2018-yil 10-iyulda berilgan 1-sonli litsenziyaga asosan faoliyat yuritadi.

Valyuta birjasi faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya chet el valyutasi, davlat qimmatli qog‘ozlari, derivativlar oldi-sotdisi bo‘yicha savdolarni tashkil etish va ular bilan bog‘liq boshqa birja bitimlarini tuzish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan kredit va depozit auksionlarini, shuningdek banklararo pul bozorini tashkil etish huquqini beradi.

O‘zRVB milliy valyutadagi likvidlik markazi va moliyaviy resurslarni jalb qilishga oid asosiy platforma hisoblanib, respublikada birja instrumentlari bilan savdo hajmi bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi. Hozirgi kunda O‘zRVB birja bozorining turli segmentlarida 18 xildan ortiq instrumentlar mavjud.

O‘zRVB birja bozorlarida kliring tashkiloti va Markaziy kontragent vazifasini bajaruvchi "Milliy kliring markazi" AJ muassisi hisoblanadi va jamiyatning 100 foiz aksiyalariga egalik qiladi.

Birjada to‘rtta bozor mavjud, bular: valyuta va pul bozorlari, shuningdek, davlat qimmatli qog‘ozlari va derivativlar bozorlari.

Valyuta bozori chet el valyutasini sotish va sotib olish bo‘yicha banklararo savdolarni, shuningdek Markaziy bank tomonidan o‘tkaziladigan valyuta auksionlarini qamrab oladi.

Pul bozoriga banklararo pul bozori, Markaziy bankning tijorat banklari bilan depozit va kredit auksionlari, valyutaviy svop va REPO operasiyalari kiradi.

Davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat g‘azna majburiyatlari va obligatsiyalari, shuningdek Markaziy bank obligatsiyalari bilan birlamchi auksionlar va ikkilamchi savdolar tashkil etilgan.

Derivativlar bozorida ikki tomonlama uzluksiz auksion (metching) usuli bilan bazaviy aktivi AQSh dollarining so‘mga nisbatan kursi hisoblangan hisob-kitob valyutaviy fyuchers kontraktlari bilan savdolar o‘tkaziladi.

Yagona savdo platformasida bir nechta birja segmentlar integrasiyasi, shuningdek, xalqaro standartlarga javob beradigan va savdolarning uzluksizligini ta’minlaydigan O‘zRVB tomonidan ishlab chiqilgan (in-house) zamonaviy savdo-kliring va hisob-kitob infratuzilmasining mavjudligi O‘zRVB birja savdolari tizimining raqobatdosh afzalligi hisoblanadi.

O‘zRVBda post-treyding xizmatlari hisob-kitoblar va kliringni amalga oshirish, davlat qimmatli qog‘ozlarini saqlash va ularga bo‘lgan huquqlarning depozitar hisobini yuritishni o‘z ichiga olgan.

Post-treyding xizmatlari O‘zRVBning o‘z hisob-kitob, kliring va depozitariy tizimi orqali amalga oshiriladi va, shu bilan, xizmatlarning tezligi va uzluksizligi ta’minlanadi. O‘zRVBning hisob-kitob tizimi zamonaviy dasturiy infratuzilma asosida yaratilgan bo‘lib, hisob-kitob operasiyalarini tezkor amalga oshirishga imkon beradi.

Faoliyatning asosiy natijalari

<table>
<tr><th rowspan="2">Savdo qatnashchilari / O‘zRVB a’zolari</th><th rowspan="2" colspan="2">Bozorlar/ instrumentlar</th><th colspan="2">2021-yil</th><th colspan="2">2022-yil</th><th colspan="2">2023-yil</th><th rowspan="2">2023-yilda daromad tarkibi</th></tr>
<tr><th>Savdo hajmlari (trln. so‘m)</th><th>Vositachilik daromadi (mlrd. so‘m)</th><th>Savdo hajmlari (trln. so‘m)</th><th>Vositachilik daromadi (mlrd. so‘m)</th><th>Savdo hajmlari (trln. so‘m)</th><th>Vositachilik daromadi (mlrd. so‘m)</th></tr>
<tr><td rowspan="9">35ta tijorat banki

2 investitsiya kompaniyasi</td><td>Valyuta bozori</td><td>USD/UZS, EUR/UZS, RUB/UZS, CNY/UZS juftliklari bo‘yicha spot operasiyalari</td><td>217,76</td><td>58,73</td><td>▲55,30%
338,18</td><td>▼2,46%
57,29</td><td>▲35,43%
458,00</td><td>▲28,02%
73,35</td><td rowspan="3">Komissiya daromadi:

91,41 mlrd. so‘m</td></tr>
<tr><td rowspan="6">Pul bozori</td><td>UZS, USD, EUR, RUB, CNY ishtirokida dilerlararo svop operasiyalari</td><td rowspan="6">143,27</td><td rowspan="6">2,15</td><td rowspan="6">▲89,38%
271,31</td><td rowspan="6">▲58,25%
3,40</td><td rowspan="6">▲77,99%
482,90</td><td rowspan="6">▲97,58%
6,72</td></tr>
<tr><td>Markaziy bankning svop auksionlari</td></tr>
<tr><td>Banklararo pul bozori</td><td rowspan="2">Foiz daromadi:

11,78 mlrd. so‘m</td></tr>
<tr><td>Markaziy bankning depozit auksionlari</td></tr>
<tr><td>Markaziy bankning to‘g‘ridan-to‘g‘ri REPO operasiyalari</td><td rowspan="2">Boshqa daromadlar:

0,33 mlrd. so‘m</td></tr>
<tr><td>DQQ bilan dilerlararo REPO bitimlari</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Fond bozori</td><td>Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan DQQ</td><td rowspan="2">28,18</td><td rowspan="2">5,51</td><td rowspan="2">▲245,22%
97,29</td><td rowspan="2">▲245,00%
19,01</td><td rowspan="2">▼39,78%
58,59</td><td rowspan="2">▼40,31%
11,34</td><td rowspan="2">Jami 2023 yilda:

103,52 mlrd. so‘m</td></tr>
<tr><td>Markaziy bank obligatsiyalari</td></tr>
<tr><td>Derivativlar bozori</td><td>Valyutaviy fyuchers shartnomalari</td><td></td><td></td><td></td><td></td><td>0,04</td><td></td></tr>
</table>

Izoh: oldingi davrga nisbatan o‘zgarish.

“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ Kuzatuv kengashi raisi murojaati

E’tiboringizga “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJning 2023-yil uchun yillik hisobotini havola etaman.

2023-yilda O‘zRVB 2019-2023-yillar uchun mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi doirasida o‘z faoliyatini olib bordi hamda savdo ishtirokchilariga qulay va jozibador savdo strategiyalari va sharoitlarni taqdim etdi.

Hisobot yilida O‘zRVB ta’sischiligida “Milliy kliring markazi” AJ sho‘ba tashkiloti tashkil etilib, tavakkalchilikni boshqarishning samarali tizimi barpo etildi. Bugungi kunda, Markaziy kontragent O‘zRVBning valyuta va derivativlar segmentlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda, uning xizmatlarini ilg‘or xalqaro amaliyot va standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Birja “ekotizimi”ning asosiy bo‘g‘ini sifatida hisob-kitob va kliring infratuzilmasini yanada takomillashtirish O‘zRVB rivojlanishining muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zRVB jamoasining birja savdolarining innovasion mexanizmlarini joriy etish borasidagi faoliyati, shuningdek, bozorlarimiz ishtirokchilarining faolligi oshishi natijasida hisobot yilida O‘zRVB barqaror o‘sishga, shuningdek, rekord darajada yuqori miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga erishdi.

Natijada, 2023-yilda birja savdolari hajmi maksimal darajani, ya’ni **999,52 trln.so‘mni**, sof foyda esa **59,66 mlrd.so‘mni** tashkil etib, 2023-yilgi biznes-reja ko‘rsatkichiga nisbatan 20,36 mlrd. so‘mga yoki **151,80 foizga** oshdi.

2022-yil yakunlari bo‘yicha O‘zRVBning sof foydasi aksiyadorlar o‘rtasida dividend sifatida taqsimlash uchun va O‘zRVB savdolarida tuzilgan bitimlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish kafolat fondini to‘ldirishga yo‘naltirildi.

O‘zRVBning samarali faoliyati O‘zRVB aksiyadorlari, mijozlari va hamkorlarining maqsad-manfaatlari muvozanatini ta’minlovchi Kuzatuv kengashining faol ishtirokida amalga oshirildi.

Hisobot yilida Kuzatuv kengashining ustuvor vazifalari, oldingi yillarda bo‘lgani kabi, tashkilotning barqaror rivojlanishini, uning faoliyatining ishonchliligi va uzluksizligini ta’minlashdan iborat bo‘ldi.

Xodimlarning tashabbuskorligi va mas’uliyatini oshirish maqsadida korporativ madaniyatni yaxshilash, axborot xavfsizligi darajasini oshirish, birja savdolari va axborot texnologiyalari mexanizmlarini takomillashtirish, xizmatlar sifatini yanada oshirishga qaratilgan bir qator muhim qarorlar ko‘rib chiqildi va qabul qilindi.

“Milliy kliring markazi” AJ faoliyatini tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi, shuningdek, risklarni boshqarish (risk-menejment) tizimini hamda korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish sohasida O‘zRVB komplayens-nazoratini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Kuzatuv kengashi O‘zRVBni aksiyadorlik jamiyati sifatida boshqarish masalalarida qonunchilik talablariga rioya qilish, shuningdek, Rivojlanish strategiyasi doirasida tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ham muayyan ishlarni amalga oshirdi.

2023-yil 23-mayda bo‘lib o‘tgan 2022-yil yakunlari bo‘yicha aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida Kuzatuv kengashi va Ijroiya organning hisobotlari tinglandi, shuningdek, faoliyatni rivojlantirish va kengaytirishga qaratilgan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Kelgusi yilda birja instrumentlarini yanada diversifikasiyalash, birja bozorlariga qator investorlarni jalb etish chora-tadbirlari doirasida xorijiy kastodian banklar va investorlar bilan aloqalar o‘rnatish, ularning davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida ishtirokini ta’minlash va xalqaro standartlarga muvofiq O‘zRVBni SWIFT xalqaro tizimiga ulash bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish ishlari davom ettiriladi.

2024-yilda birja faoliyatining barcha yo‘nalishlarini yanada avtomatlashtirish, savdo-dasturiy majmualarni ilg‘or jahon amaliyotlari va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi.

Murojaatim yakunida barcha aksiyadorlar, mijozlar va hamkorlarga samarali hamkorlik uchun, O‘zRVB jamoasiga mehnat va sadoqat, vazifalarga mas’uliyat bilan yondashganliklari va 2023-yilda erishilgan yuqori natijalar uchun minnatdorchilik bildirmoqchiman.

B. Abubakirov
O‘zRVB Kuzatuv kengashi raisi

“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ Bosh direktori murojaati

Hurmatli aksiyadorlar, hamkasblar!

O‘zRVBning 2023-yilda rivojlanish yo‘nalishlari birja bozorlarining bugungi tendensiyalarini, shu jumladan axborot-kommunikasiya texnologiyalarini takomillashtirish, birja savdosining yangi mexanizmlarini, shuningdek, xatarlarni boshqarish va komplayens nazoratining samarali tizimini joriy etishni hisobga olgan holda belgilandi.

Birja bozorlarining yanada rivojlanishi natijasida biz sifatli va barqaror xizmatlarni ko‘rsatishni ta’minlagan holda, birja savdolari hajmining o‘sishiga erishdik.

Ijobiy statistika birja instrumentlarining keng qatoridan foydalanishda savdo ishtirokchilari faollashishi, savdo hajmlarining o‘sishi, shuningdek, ishtirokchilarimiz uchun yangi savdo strategiyalarini taqdim etish hamda qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zRVB likvidlik markazi va resurslarni jalb qilish uchun asosiy savdo maydonchasi hisoblanadi va hisobot yilida savdo hajmlarining sezilarli darajada oshishi buning yaqqol dalilidir.

2023-yilda savdolarning umumiy hajmi rekord darajaga yetib, **999,52 trln. so‘mni** tashkil etdi. Shu bilan birga, valyuta bozoridagi hajmlar 2022-yil ko‘rsatkichlaridan 35,43 foizga, pul bozorida esa 77,99 foizga oshib, mos ravishda **458,00** va **482,90 trln.so‘mni** tashkil etdi, qarz bozorida savdolar hajmi **58,59 trln. so‘mga** teng bo‘ldi.

Hisobot yilida O‘zRVB 2019-2023-yillarga mo‘ljallangan hamda birja xizmatlarini yanada rivojlantirish, birja bozorlariga sug‘urta va investitsiya biznesi vakillarini jalb qilish hisobiga birja instrumentlari qatorini, mijozlar qatorini kengaytirish, birja xodimlari va birja bozori ishtirokchilarining malakasini oshirish kabi masalalarni o‘z ichida qamrab olgan Rivojlanish strategiyasi doirasida o‘z faoliyatini davom ettirdi.

Hisobot davrida mamlakatda ilk bor O‘zRVB ta’sisichiligida Markaziy kontragent maqomiga ega “Milliy kliring markazi” AJ tashkil etilishi O‘zRVBda defolt-menejmentning samarali tizimini yanada rivojlantirishga va risklarni boshqarish mexanizmlarini kengaytirishga ko‘maklashadi.

“Milliy kliring markazi” AJning Markaziy kontragent sifatida faoliyati birja bozori ishtirokchilarining infratuzilma xatarlari va xarajatlarini kamaytirishga, turli xil moliyaviy instrumentlar, shu jumladan birjadan tashqari instrumentlar bo‘yicha markazlashtirilgan kliring uchun sharoit yaratishga, shuningdek, kapital bozoriga yangi ishtirokchilarni jalb qilishga yordam berishga qaratilgan.

Shu bilan birga, tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyatining omillaridan biri, O‘zRVBda qabul qilingan kadrlar strategiyasi hamda xodimlarning ko‘p tomonlama salohiyatini kashf etish, ularning doimiy kasbiy rivojlanishi, shuningdek tashkilotga

tajribali va yosh mutaxassislarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan kadrlar siyosati hisoblanadi.

Hisobot yilida ushbu sohada kadrlar tanlashning ko‘p bosqichli tizimini joriy etish, shu jumladan xodimlarni tanlash va yollashning kompleks tizimini, shuningdek ularni baholash va rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish va joriy etish ishlari davom ettirildi.

Xalqaro munosabatlar sohasida O‘zRVB yetakchi xorijiy birjalar va xalqaro moliya institutlari bilan, hususan birja faoliyatini rivojlantirish, korporativ boshqaruv, axborot texnologiyalari va risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish yo‘nalishlarida hamkorlikni rivojlantirmoqda.

2023-yilda O‘zRVB bir qator nufuzli xalqaro tadbirlarda ishtirok etib, ular davomida birja instrumentlari qatorini kengaytirish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish, professional ishtirokchilar va investorlar uchun savdolarda ishtirok etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, O‘zRVBga a’zolik shartlarini soddalashtirish masalalari yuzasidan fikr va tajriba almashildi, kelgusida hamkorlik qilish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Aytish joizki, 2024-yilda ham O‘zRVB o‘z faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish, raqobatbardoshlikni oshirish, O‘zRVBning ichki va xalqaro bozorlardagi mavqeini yanada yaxshilash maqsadida strategik rivojlanish yo‘nalishlariga muvofiq ishlarni davom ettiradi.

O‘zRVB kapital bozori infratuzilmasining asosiy ishtirokchisi sifatida xalqaro standartlar asosida o‘zining zamonaviy va ishonchli axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda yangi ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqishga, biznes-jarayonlar va birja savdolarini yanada avtomatlashtirishga alohida e’tibor qaratadi.

Shuningdek, bizning sa’y-harakatlarimiz, O‘zRVB faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri, ya’ni xodimlarning korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish, axborot texnologiyalari va dasturlash yo‘nalishlari bo‘yicha malakasini oshirish, xodimlarni tayyorlash va uzluksizligi tizimini takomillashtirish, istiqbolli yosh mutaxassislarni o‘qitish yo‘nalishlariga qaratiladi.

Biz birja bozori professional ishtirokchilari va ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda hamkorlikning turli shakllaridan – ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy nashrlarda chiqishlar, televizion ko‘rsatuvlar, seminarlar, birja bozorining turli jihatlariga bag‘ishlangan vebinarlardan foydalangan holda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha faol ish olib bormoqdamiz.

O‘zRVBda moliyaviy savodxonlikni oshirish chora-tadbirlari doirasida video treninglar, o‘quv infografikalarini tizimli joylashtirish, treyderlar uchun birja savdosi bo‘yicha vebinar va o‘quv video darsliklarini o‘tkazishdan iborat amaliyot joriy etildi.

Bu qatorda, mamlakatning yetakchi oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, shuningdek, birja va bank-moliya sohasi mutaxassislarini jalb etgan holda, O‘zRVB ta’lim markazi faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Shuningdek,

talabalar va amaliyotchilarni birja simulyatoridan foydalangan holda birja faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, birja savdolarini o‘tkazish mexanizmlari bilan tanishtirish maqsadida O‘zRVBda amaliyot o‘tashni joriy etish rejalashtirilgan.

2023-yilda O‘zRVBning yangi o‘rta muddatli rivojlanish strategiyasining ishlab chiqilishi boshlangan bo‘lib, uni 2024-yilda tasdiqlashni rejalashtirdik. Ushbu strategiya birja faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini yanada rivojlantirishni, shu jumladan, birja xizmatlari qatorini kengaytirishni, O‘zRVB birja bozorlariga xorijiy investorlar va jismoniy shaxslarni keng jalb qilishni, yangi dasturiy mahsulotlarini joriy etish va rivojlantirishni va boshqalarni o‘z ichida qamrab olmoqda.

Sifatli xizmat ko‘rsatish, barcha ishtirokchilarimizni teng sharoitlar va birja infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatini ta’minlash bizning ustuvor vazifamiz bo‘lib, uning dolzarbligi hamon saqlanib kelmoqda.

Men, barcha aksiyadorlar va hamkorlarimizga ishonch va samarali hamkorlik uchun, xodimlarga sa’y-harakatlari va hamjihatlikdagi faoliyatlari uchun, 2023-yilda muhim natijalarga erishishga qo‘shgan hissalari uchun minnatdorchilik bildiraman.

Rashid Usmanov
O‘zRVB Bosh direktori

O‘zRVB missiyasi, yondashuvi va faoliyat maqsadlari

O‘zRVB Rivojlanish strategiyasiga muvofiq, ***O‘zRVB missiyasi*** birja savdolarining yangi imkoniyatlarini joriy etish va respublikada qulay investitsiya muhitini rivojlantirish uchun ishonchli, shaffof va innovatsion birja bozorini shakllantirish orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va restrukturizatsiyasiga ko‘maklashish deb e’tirof etiladi.

O‘zRVB yondashuvi – ko‘p funksiyali va yuqori texnologiyali birja platformasi sifatida birja bozorining barcha ishtirokchilariga keng doiradagi birja mahsulotlari va xizmatlaridan ishonchli va shaffof foydalanish imkonini yaratish.

O‘zRVBning maqsadi bo‘lib birja bozorining hajmi va likvidligini oshirishni ta’minlovchi birja savdolarini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yuqori texnologiyali infratuzilmani joriy etish va birja mahsulotlarini diversifikatsiya qilish orqali regulyatorga pul-kredit va valyuta siyosati maqsadlariga erishishda ko‘maklashish hisoblanadi.

O‘zRVBning ***korporativ qadriyatlari***:

Xodimlar:

- Jamoaviy va hamjihatlikda faoliyat
- Xodimlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va o‘zaro ko‘mak
- Xodimlarga g‘amxo‘rlik qilish va ularning salohiyatini oshirish
- O‘zaro ishonch

Ish samaradorligi va innovatsiyalar:

- Intizom (ijro intizomi va axloqiy me’yorlarga rioya qilish)
- Keng qamrovli tahlil asosida qarorlar qabul qilish
- Innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirish

Mijozlarga e’tibor:

- Texnologiyalar, eng avvalo, mijozning manfaatlariga xizmat qiladi
- Investitsiya qilish uchun sharoit yaratish
- Mijozlarning ishonchi
- Mijozlarni bilish va tushunish

O‘zRVB faoliyatining asosiy maqsadlari:

- birja bozorlarini tashkil etish va tartibga solishni ta’minlash, talab va taklif asosida birja instrumentlarini kotirovka qilish;
- O‘zRVB va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko‘zlab moliya-xo‘jalik faoliyatidan foyda olish;
- birja bozorlarining barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish, birja savdolarida narxlar shakllanishi erkinligi va shaffofligini ta’minlash;
- savdo ishtirokchilariga samarali va ishonchli xizmat ko‘rsatish uchun infratuzilmani rivojlantirish.

O‘z maqsadlariga erishish uchun O‘zRVB quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradi:

- quyidagi savdolarni tashkil etish va o‘tkazish:

  - chet el valyutasini sotish va sotib olish bo‘yicha banklararo birja savdolari;

  - davlat qimmatli qog‘ozlarining (DQQ) birlamchi joylashtirilishi va ikkilamchi savdolari;

  - tijorat banklarining pul mablag‘larini jalb qilish va joylashtirish bo‘yicha banklararo savdolar;

  - Markaziy bankning tijorat banklari bilan depozit auksionlari;

  - derivativlar bilan birja savdolari;

- DQQni saqlash va ularga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish;
- milliy va xorijiy valyutadagi birja bitimlari bo‘yicha kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- birja vositalarining talab va taklif nisbati asosida ularning kotirovkalarini (narxlarini) belgilash, chet el valyutasi bilan savdolarda milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilash;
- birja bozori indikatorlarini shakllantirish va ularni O‘zRVB rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ravishda e’lon qilish;
- O‘zRVB a’zolari uchun majburiy bo‘lgan birja savdolari qoidalarini, shuningdek namunaviy shartnomalar va tuzilgan bitimlarni rasmiylashtirish uchun standart hujjatlar shakllarini ishlab chiqish;
- treyderlarning kasbiy malakasini yuqori darajada saqlashi uchun sharoitlar yaratish;
- birja savdolari ishtirokchilarini savdolar natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot bilan ta’minlash, ularga zarur maslahat va boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish;
- O‘zRVB samarali faoliyat yuritishi uchun savdo-dasturiy va avtomatlashtirilgan komplekslarni ishlab chiqish va joriy etish.

2023-yil uchun asosiy maqsadlar va vazifalar

2023-yilda O‘zRVB faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek ustuvor yo‘nalishlari O‘zRVB Ustavi, Rivojlanish strategiyasi va Korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiq, shuningdek, tashkilotning potensial imkoniyatlari va istiqbolli rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillarni hisobga olgan holda belgilanadi.

O‘zRVB faoliyatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilangan:

amaldagi birja instrumentlarini targ‘ib etish va yangi birja instrumentlarini joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va umuman birja infratuzilmasini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini amalga oshirish, post-treyding xizmatlarni yanada rivojlantirish;

O‘zRVBning barcha bozorlarida savdo hajmlarining ijobiy va bir me’yorda o‘sish sur’atini saqlab qolish;

korporativ boshqaruvning ilg‘or usullarini joriy etish orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish;

yuqori moliyaviy ko‘rsatkichlarga erishish va xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan zarur choralarni ko‘rish;

risklarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

kadrlar bilan ta’minlashning barqaror tizimini rivojlantirish, mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish;

o‘zaro anglashuv va hamkorlik memorandumlari doirasida amaldagi hamkorlar bilan aloqalarni yanada rivojlantirish hamda yangi potensial hamkorlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish;

kommunikatsiyalar va jamoatchilik bilan aloqalarni rivojlantirish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish.

Birja faoliyatini yanada takomillashtirish, shu jumladan tashkilotning potensial imkoniyatlaridan kelib chiqib mavjud ***birja instrumentlarini targ‘ib etish va joriy qilish*** uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

turli valyuta juftliklari, shu jumladan milliy valyuta ishtirokida savdolarni tashkil etishni nazarda tutuvchi valyuta bozorining birja instrumentlar qatorini diversifikatsiyalash;

turli valyutalar ishtirokida yangi birja instrumentlarni joriy etish uchun savdo tizimlarini tayyorlash;

valyutaviy svop instrumentini yanada targ‘ib etish uchun sharoit yaratish va bozor ishtirokchilari uchun yangi savdo strategiyalarni taqdim etish;

REPO operatsiyalarini, shu jumladan dilerlararo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari REPO operatsiyalarini yanada ommalashtirish, O‘zRVB platformasida REPO savatini (repo basket) standartlashtirilgan muddatlar kesimida joriy etish;

pul bozorining “benchmarki”ni shakllantirish uchun turli muomala davriga ega bo‘lgan DQQning chiqarilish chastotasi va hajmini oshirish;

marjinal savdo mexanizmlarini qo‘llash (initial margin, hair-cut, mark-to-market);

market-datani targ‘ib etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shu jumladan Refinitiv va Bloomberg platformalari orqali;

O‘zRVBning barcha bozorlarida birja savdolarining asosiy ishtirokchisi sifatida market-meykerlik faoliyatini joriy etish va rivojlantirish, market-meykerlik dasturlarini takomillashtirish;

birja savdolari ishtirokchilari bilan fikr-almashish samarali tizimini yanada takomillashtirish va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish (konsultatsiyalar va moliyaviy savodxonlikni oshirish).

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish

Rivojlanish strategiyasi doirasida innovatsiyalarni joriy etish va texnologik modernizatsiya yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali biznes-jarayonlar va birja savdolarini avtomatlashtirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish;

birja savdolari natijalari bo‘yicha hujjatlarni shakllantirish, qabul qilish va yuborish jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

yangi elektron savdo platformalarini yaratish, turli birja instrumentlarini joriy etish va rivojlantirish maqsadida eng yaxshi xorijiy amaliyotlariga muvofiq ilg‘or texnologik yechimlarni ishlab chiqish;

axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi tizimlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, birja infratuzilmasining ishdan chiqishga chidamliligi va ishonchliligini ta’minlash;

zamonaviy veb-texnologiyalarni, xususan, veb-xizmatlar va mobil ilovalarni keng qo‘llash va yanada rivojlantirish;

market data mahsulotlarini joriy etish.

Post-treyding xizmatlarini yanada rivojlantirish

Ushbu yo‘nalishda barqaror faoliyat ko‘rsatuvchi, yuqori texnologiyali va xalqaro standartlar asosida hisob-kliring tashkilotini barpo etish maqsadida yuridik shaxs shaklida, Markaziy kontragent maqomiga ega hisob-kliring markazini tashkil etish bo‘yicha tashkiliy ishlar nazarda tutilgan.

Hisob-kliring faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida, birja savdolari yakunlari bo‘yicha hisob-kliring operatsiyalarini uzluksiz o‘tkazish uchun Rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish doirasida kliring markazining Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘ini ochish rejalashtirilgan.

Risklarni boshqarish tizimini joriy etish va rivojlantirish, shuningdek, ushbu yo‘nalish uchun yangi dasturiy-texnologik komplekslarni ishlab chiqish maqsadida 2023-yilda zarur normativ-huquqiy bazani shakllantirish ham ko‘zda tutilgan.

2023-yilda Rivojlanish strategiyasining amalga oshirilishi

Hisobot davrida O‘zRVB faoliyatini yanada rivojlantirish, birja infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirildi.

Samarali operatsion faoliyatni ta’minlash va biznes jarayonlarini optimallashtirish maqsadida O‘zRVBda ISO 9001:2015 xalqaro standartiga muvofiq sifat menejmenti tizimi joriy etilgan.

2023-yil fevral oyida “CERT International” tomonidan o‘tkazilgan qayta sertifikatlash auditi yakunlari bo‘yicha O‘zRVBda sifat menejmenti tizimining ISO 9001:2015 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikat yangilandi.

Auditni o‘tkazgan “CERT International” MChJ auditorlari O‘zRVBda sifat menejmenti tizimi to‘liq samarali ekanligini va uni muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlash va yanada rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilganligini ta’kidladilar.

Shuningdek, O‘zRVB hisobot yilida ISO 17442 xalqaro standartiga muvofiq yuridik shaxslarga beriladigan va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarni aniqlash imkonini beruvchi ma’lumotlar asosida yaratilgan LEI xalqaro kodi (yuridik shaxsni identifikatsiyalash xalqaro kodi) olindi.

O‘zRVB xalqaro LEI kodini olishi SWIFT (xalqaro banklararo ma’lumot uzatish va to‘lovlarni amalga oshirish tizimi) tizimida ro‘yxatdan o‘tish va SWIFT kodini olish jarayonining oraliq bosqichi hisoblanadi.

Bundan tashqari, 2023-yilda O‘zRVB qarz bozori bozorida DQQ ilk bor T+2 hisob-kitob rejimida joylashtirilgan. Ushbu rejim doirasida auksionda sotib olingan DQQ bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblar bitimlar tuzilgan kundan keyingi ikkinchi savdo kunida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, mazkur bozorda DQQ birlamchi joylashtirish bo‘yicha auksionlarda mahalliy dilerlar orqali davlat qimmatli qog‘ozlarini sotib olgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, ICBC (Xitoy), Bank Of Georgia (Gruziya) kabi ishtirokchilar hisobiga yirik xorijiy investorlar qatori kengaydi.

2023-yilda DQQ bozorida ilk market-meykerlar ham o‘z faoliyatini boshladi. O‘zRVBning tegishli qaroriga muvofiq birlamchi dilerlar “ASIA ALLIANCE BANK” ATB, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Ipak yo‘li” AITB, “Turonbank” ATB va AT “Xalq banki”ga O‘zRVB ikkilamchi bozorida market-meyker maqomi berildi.

Ushbu tijorat banklari 2023-yil 1-fevraldan boshlab market-meyker vazifasini bajarishni boshladilar.

Bundan tashqari, birja bitimlari bo‘yicha hisob - kitoblar tizimini yanada takomillashtirish maqsadida hisobot yilida O‘zRVB mutaxassislari tomonidan “one-click”

innovatsion mahsuloti - DQQ bilan REPO bitimlari bo‘yicha to‘lov hujjatlarini shakllantirish va uzatish jarayonini avtomatlashtiruvchi noyob tizim joriy etildi.

Ushbu tizim tufayli o‘zaro hisob-kitob jarayonlari ancha soddalashtirildi va bitimlar natijalariga ko‘ra qimmatli qog‘ozlar xaridorining mablag‘lari avtomatik ravishda uning hisobvarag‘idan yechib olinib, bir necha daqiqa ichida qimmatli qog‘ozlar sotuvchisining hisob raqamiga tushirib beriladi.

Asosiy infratuzilma bo‘g‘ini sifatida Markaziy kontragent faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

Ta’kidlash lozimki, valyuta va muddatli bozorlarda Markaziy kontragentning bugungi kundagi samarali faoliyati savdo ishtirokchilarining kredit risklarini kamaytirishga, birja operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblarning to‘liqligini kafolatlashga, netting va kross-marjinlash orqali tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-291-son qaroriga muvofiq, O‘zRVB ta’sischiligida “Milliy kliring markazi” AJ tashkil etildi.

Bundan tashqari, Milliy kliring markazining samarali faoliyatini tashkil etish, DQQ bo‘yicha depozitar tizimni yanada takomillashtirish, shuningdek, DQQ bozori ishtirokchilari va investorlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar boshlangan:

- Markaziy bankda “Milliy kliring markazi” AJning vakillik hisobvarag‘ini ochish va real vaqt rejimida hisob-kitoblarni amalga oshirish (RTGS);

- O‘zRVBning barcha bozorlarida Markaziy kontragent faoliyatini tashkil etish, defolt-menejment tizimini joriy etish va takomillashtirish;

- O‘zRVB depozitar tizimining DQQni saqlash, hisobga olish va ular bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta’minlovchi dasturiy ta’minotiga xorijiy nominal saqlovchi, shu jumladan kastodian funksiyasini joriy etish;

DQQ bilan bitimlar tuzishda qimmatli qog‘ozlar va pul mablag‘larini oldindan deponentlash talablarini bekor qilish va yangi hisob-kitob (kliring) modeli doirasida risklarni boshqarish amaliyotini joriy etish;

bozor ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga moliyaviy ma’lumot almashish protokoli (FIX) yoki standartlashtirilgan API yordamida xorijiy vendorlar (Bloomberg, Refinitiv, CBonds va boshqalar) orqali uzatish hamda xorijiy investitsiya vositachilaridan savdo buyurtmalarini ichki tizimlar, shu jumladan buyurtmalarni boshqarish tizimlari (OMS) orqali qabul qilish imkoniyatlarini yaratish.

Shu bilan birga, “Milliy kliring markazi” AJning strategik vazifalaridan biri sifatida savdo ishtirokchilariga xizmat ko‘rsatishda ularning yagona pozitsiyalarini (limitlarini) yuritishni nazarda tutuvchi ilg‘or xorijiy tajriba va eng yaxshi amaliyotlarga muvofiq

integratsiyalashgan kliring xizmatlarini taqdim etish deb belgilandi.

Birja bozorlarida tuzilgan bitimlarining ijrosini kafolatli ta’minlash maqsadida kliring qatnashchilarining majburiy badallari, vositachilik mukofoti va O‘zRVBning o‘z mablag‘lari hisobiga O‘zRVB Kafolat jamg‘armasini yanada kengaytirish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, O‘zRVBning amaldagi “Settlements” hisob-kitob tizimini “Milliy kliring markazi” AJning avtomatlashtirilgan bank tizimiga transformatsiya qilish, uni “Bank depozitorlarining milliy axborot bazasi” va Markaziy bankning “NARGIS” banklararo to‘lov tizimi bilan integratsiya qilish, Markaziy bankda vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda SWIFT tizimiga ulash bo‘yicha faol ishlar olib borildi.

Shu bilan birga, O‘zRVBning “DepoMax” depozitar tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlar O‘zRVB va Markaziy depozitariy mijozlarining (omonatchilari) yagona bazasini qamrab olish, shuningdek, DQQ, korporativ va boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlarni qamrab oluvchi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning yagona ma’lumotlar bazasini yuritish uchun texnologik imkoniyatlarni yaratishga mo‘ljallangan.

Mazur chora-tadbirlar doirasida O‘zRVB depozitar tizimida xorijiy nominal saqlovchilarning hisobvaraqlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsiy hisobvaraqlar hamda omnibus hisobvaraqlarni ochish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, xorijiy nominal saqlovchilarning DQQ bilan savdolarda, shu jumladan REPO bitimlarida ishtirok etish imkoniyati ta’minlandi.

Bundan tashqari, O‘zRVBning Rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish doirasida savdo ishtirokchilari uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, birja bozorlariga likvidlikni jalb etish maqsadida 2023-yil davomida O‘zRVBda quyidagi muhim ishlar amalga oshirildi.

Valyuta bozori

Ushbu yo‘nalishda valyuta bozorini yanada rivojlantirish bo‘yicha ishlar davom etmoqda, jumladan:

valyuta bozorida yetarlicha likvidlikni (yevro, Xitoy yuani, Rossiya rubli bo‘yicha) shakllantirish va savdo hajmlarini oshirish uchun tegishli instrumentlar bo‘yicha market-meykerlik dasturlari loyihalari ishlab chiqilgan;

valyuta spot bozorida mavjud market-meykerlik dasturlari shartlari qayta ko‘rib chiqildi, ushbu dasturlarga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar loyihalari ishlab chiqildi;

KZT/UZS, EUR/USD, EUR/RUB, USD/RUB, USD/KZT, USD/CNY, RUB/CNY, RUB/KZT valyuta juftliklari ishtirokida savdolarni joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda;

RFQ (request for quotation) - kotirovka (narx)ni so‘rash buyurtmasi asosida valyuta spot va svop bozorlarida tizimdan tashqari savdolarni tashkil etish chora – tadbirlari amalga oshirilmoqda;

Ekspiratsiya muddati 6, 9 va 12 oylik valyutaviy fyuchers shartnomalarini joriy etish maqsadida savdo qoidalari va spesifikatsiyalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar loyihalari ishlab chiqildi.

Qarz bozori

Hisobot yilida mamlakat kapital bozori tizmida muhim bo‘g‘in sifatida DQQ bozorini yanada rivojlantirish bo‘yicha ham muayyan ishlar amalga oshirildi.

Bozorni yanada rivojlantirish, savdo ishtirokchilarini faollashtirish va bozor likvidligini oshirish maqsadida birlamchi va ikkilamchi dilerlar faoliyati joriy etildi, “Toshkent” RFB a’zolarini ikkala birja a’zolarini o‘zaro tan olish tamoyili asosida O‘zRVB a’zoligiga qabul qilishning yagona soddalashtirilgan tartibi tasdiqlandi.

Sug‘urta biznesi, investitsiya va pensiya jamg‘armalari hamda boshqa yirik korporativ yuridik shaxslarni davlat qimmatli qog‘ozlari bozoriga jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida “O‘zRVB” AJga a’zolik to‘g‘risidagi tartib”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar loyihasi ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, 2023-yil yanvar-fevral oylarida DQQ bozorida yetarlicha likvidlik bilan ta’minlash maqsadida 5 nafar birlamchi dilerlar bilan DQQ bozorida market-meykerlik faoliyatini amalga oshirish to‘g‘risida bitimlar imzolandi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori bilan O‘zRVBning Birja savdolari boshqarmasi tarkibida 3 shtat birligidan iborat Fond bozorida savdolar bo‘limi tashkil etildi.

Shuningdek, dilerlar reytingini shakllantirish va keyinchalik e’lon qilish mexanizmini joriy etish hamda ularni DQQ bozorida rag‘batlantirish, reyting natijalarini keng jamoatchilikka korporativ sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar (Facebook, Instagram, Telegram) orqali yetkazish maqsadida “O‘zRVB a’zolari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” loyihasi ishlab chiqildi.

Pul bozori

Banklararo pul bozorini yanada rivojlantirish va O‘zRVBda savdolar hajmini oshirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan:

RFQ (request for quotation) - kotirovka (narx)ni so‘rash buyurtmasi asosida hamda “secure chat”dan foydalangan holda banklararo pul bozorining tizimdan tashqari savdolarini uzluksiz auksion shaklida tashkil etish;

banklararo pul bozorida chet el valyutasida pul mablag‘larini joylashtirish va jalb qilish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish va ular bo‘yicha indikatorlarni standart muddatlar kesimida e’lon qilish;

Markaziy kontragent ishtirokida tizimli va tizimdan tashqari svop operatsiyalarini amalga oshirish;

EUR/USD, EUR/RUB, USD/RUB, USD/CNY, USD/KZT va RUB/KZT valyuta juftliklari ishtirokidagi svop operatsiyalarini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratish;

svop bozorida market-meykerlik faoliyatini va market-meykerlik dasturlarini joriy etish;

“netting” va “gross” usullari bo‘yicha hisob-kitoblarni nazarda tutuvchi REPO operatsiyalari bo‘yicha kliring mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

risklarni boshqarish (defolt-menejment) samarali tizimini joriy etish;

Bloomberg L.P. va Refinitiv platformalari orqali svop operatsiyalari bo‘yicha market-datani uzatish.

Derivativlar bozori

Ushbu segmentda hisobot yilida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar boshlangan:

likvidlik provayderi faoliyatini joriy etish;

EUR/USD, CNY/UZS va boshqa valyuta juftliklari ishtirokida savdolarni tashkil etish;

birjaning barcha a’zolari (shu jumladan investitsiya vositachilari) uchun derivativ instrumentlar bilan savdolarda qatnashish imkoniyatini yaratish;

DQQning daromadliligi, pul bozori foiz stavkalari, shuningdek boshqa ko‘rsatkichlar va birja indekslari asosida fyuchers shartnomalari bo‘yicha savdolarni tashkil etish.

Xalqaro hamkorlik va kommunikatsiyalar

Xalqaro hamkorlik sohasida yangi potensial xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish, shuningdek imzolangan memorandumlar va bitimlar doirasida amaldagi hamkorlar bilan munosabatlarni jadallashtirish masalalariga katta ahamiyat berildi. Ushbu yo‘nalishda 2023-yilda O‘zRVB uchun bir qator muhim tadbirlar o‘tkazildi.

2023-yil 16-yanvar kuni O‘zRVB rahbariyati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida global bozorlar boshqarmasi boshlig‘i Yan Villems boshchiligidagi Clearstream Banking S.A. delegatsiyasi bilan uchrashuv o‘tkazdi, unda Clearstream va O‘zRVB o‘rtasidagi hamkorlikning samarali shakllari, shu jumladan kompaniyaning O‘zRVB bozorlarida xorijiy investorlar nomidan ishtirok etishi va SWIFT tizimi orqali xalqaro hisob-kitoblarning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi.

O‘zRVB va Clearstream hamkorligi doirasida O‘zRVB rahbariyati 2023-yil 11-12-may kunlari Sofiya (Bolgariya) shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek MDH mamlakatlari uchun 17-nchi Clearstream Banking S.A. sammitida ishtirok etdi.

2023-yil 28-fevral kuni O‘zRVBda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi, unda O‘zRVB savdo-dasturiy komplekslari imkoniyatlari, banklararo REPO bozoridagi so‘nggi o‘zgarishlar muhokama qilindi.

Hisobot yilining mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2022-yilda O‘zRVB tomonidan erishilgan yutuqlar, yangi mahsulotlar joriy etilishi hamda birja faoliyatini yanada rivojlantirish istiqbollariga bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.

Tadbir doirasida O‘zRVB faoliyati yakunlari sarhisob qilinib, joriy etilgan yangi instrumentlar bo‘yicha tushunchalar berildi, birja platformalarini yanada raqamlashtirish va takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston moliya bozorlarini rivojlantirish sohasidagi strategik hamkorlik doirasida 2023-yil 1-iyun kuni O‘zRVBda Refinitiv kompaniyasi vakili Aygyun Muzaffarli bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Tomonlar birja axborotlarini uzatish va tahlil qilish, texnologik yechimlarni ishlab chiqish, axborot mahsulotlar qatorini kengaytirish sohasida tajriba almashish, shuningdek, O‘zRVB birja bozorlarini yanada rivojlantirish sohasidagi hamkorlikni jadallashtirishga kelishib oldilar.

2023-yil 28-iyul kuni O‘zRVBda Osiyo taraqqiyot bankining missiyasi bilan Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik (SARES) doirasidagi kapital bozorlar ishtirokchilariga texnik ko‘mak ko‘rsatish masalasi bo‘yicha uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda birja bozorlarini tartibga solish, birja jarayonlarini yanada raqamlashtirish, barqaror rivojlanish siyosati loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston kapital bozorini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

2023-yil 30-iyundan 7-iyulgacha bo‘lgan davrda O‘zRVB Bosh direktori boshchiligidagi delegatsiya London shahriga tashrif buyurib, Bloomberg L.P., Refinitiv, London fond birjasi, Vermax Ltd. kompaniyalari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi va O‘zRVB market-datasini xalqaro vendorlar platformalari orqali tashqi foydalanuvchilarga uzatish, IT sohasida tajriba almashish, yangi birja instrumentlarini joriy etish, shuningdek, O‘zRVB bozorlariga xorijiy institutsional investorlarni jalb qilish masalalarini muhokama qildi.

Tashrif davomida O‘zRVB va Bloomberg L.P. kompaniyasi o‘rtasida market-datani ushbu kompaniya platformasi orqali tashqi foydalanuvchilarga uzatish bo‘yicha strategik bitim imzolandi.

2023-yil 2-avgust kuni O‘zRVBda Koreya Markaziy banki va Donguk Koreya universiteti vakillaridan iborat qo‘shma delegatsiya bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv natijalariga ko‘ra Markaziy kontragent faoliyatini rivojlantirish masalalarida hamkorlik va tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish, ikki mamlakat qimmatli qog‘ozlar bozori investorlari va ishtirokchilari uchun qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida DQQ va boshqa birja instrumentlar ishtirokida bitimlar bo‘yicha hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

2023-yil 23-avgustda Turkiya, Gresiya va MDH mamlakatlari mijozlari bilan ishlash yo‘nalishi direktori Alev Alp Esen boshchiligidagi Refinitiv kompaniyasi delegatsiyasi bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv yakunida Refinitiv platformasidagi O‘zRVB sahifasini yanada takomillashtirish, uning xalqaro moliya bozori ishtirokchilari o‘rtasida targ‘ib etish, O‘zRVB taqdim etayotgan ma’lumotlar qamrovini kengaytirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

2023-yil 7-sentyabrda O‘zRVB vakillari CBonds-Congress kompaniyasi (Rossiya) tomonidan tashkil etilgan “O‘zbekiston Respublikasi kapital bozori” V xalqaro konferensiyasining plenar muhokamalarida ishtirok etdilar.

2023-yil 8-sentyabr kuni O‘zRVBda “Qirg‘iziston fond birjasi” AJ (QFB) rahbariyati bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv davomida O‘zRVB va KFB o‘rtasidagi hamkorlik yo‘nalishlari, jumladan, valyuta va DQQ bozorlarini rivojlantirish bo‘yicha tajriba almashish, shuningdek, savdo-dasturiy komplekslarni rivojlantirish va O‘zRVB savdo platformalarini targ‘ib etish masalalari muhokama qilindi.

2023-yil 21-sentyabr kuni O‘zRVBda Bloomberg L.P. kompaniyasining rivojlanayotgan bozorlarda biznesni rivojlantirish yo‘nalishi direktori Peter Jonston boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda O‘zRVBning Bloomberg platformasi orqali tashqi foydalanuvchilarga market-datani uzatish, taqdim etilayotgan ma’lumotlar turlari va qamrovini kengaytirish, Bloomberg tahliliy platformalaridan foydalanish yuzasidan tajriba almashish, shu jumladan, DQQ bo‘yicha daromadlilik egri chizig‘ini yaratish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

2023-yil 22-28-oktyabr kunlari O‘zRVB vakillarining “Moskva birjasi” guruhiga kiruvchi tashkilotlarga ishchi tashrifi bo‘lib o‘tdi, unda “Milliy kliring markazi” AJ, “Milliy hisob-kitob depozitariysi” AJni tashkil etish, “Milliy kliring markazi” AJ tuzilmasi, asosiy vazifalari va funksiyalari, taqdim etilayotgan xizmatlar, dasturiy ta’minotlar, Markaziy kontragent faoliyatini joriy etish, shuningdek, muddatli bozorning asosiy tamoyillari va savdo tizimlariga qo‘yiladigan talablar masalalari bo‘yicha tajriba almashildi.

Shuningdek, O‘zRVB vakillari 2023-yil 13-17-noyabr kunlari Olmaota shahrida tashkil etilgan MDH birjalari xalqaro assotsiatsiyasining umumiy yillik yig‘ilishi, Xalqaro birja forumi, shuningdek, “Qozog‘iston fond birjasi” AJning 30 yilligi munosabati bilan tantanalarda ishtirok etdi.

Bundan tashqari, 2023-yil davomida Bloomberg L.P. kompaniyasi vakillari, texnologik mahsulotlar va IT yechimlarni yaratishga ixtisoslashgan Vermax Ltd. kompaniyasi bilan birja bozorlari, ularni tartibga solish va texnologik masalalar bo‘yicha konsultatsion ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha ishchi va maslahat uchrashuvlari o‘tkazildi. Uchrashuvlarda xorijiy investorlarning O‘zRVB bozorlarida ishtirok etishi, texnologik platformalarni ishlab chiqish va rivojlantirish, shuningdek, O‘zRVBning Bloomberg platformasi orqali market-datani uzatish va O‘zRVB sahifasiga joylashtirish yo‘nalishida hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Asosiy tadbirlar

2023-yil 16-17-yanvar - O‘zRVB Bosh direktori Sofiya (Bolgariya) shahrida Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek MDH mamlakatlari uchun tashkil etilgan 17-nchi Clearstream Banking S.A. sammitida ishtirok etdi.

2023-yil 1-fevral - ikkilamchi bozorda DQQ oldi - sotdi operatsiyalari va REPO bitimlari bo‘yicha market-meykerlik maqomi birlamchi dilerlar “ASIA ALLIANCE BANK” ATB, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Ipak yo‘li” AITB, “Turonbank” ATB hamda AT “Xalq banki”ga berildi.

2023-yil 14-fevral - O‘zRVB platformasida DQQ ilk bor T+2 hisob - kitob rejimida joylashtirildi.

2023-yil 21-fevral - O‘zRVBning sifat menedjmenti tizimi ISO 9001:2015 standarti bo‘yicha qayta sertifikatlash auditidan muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

2023-yil 22-fevral - O‘zRVBga LEI kodi berildi.

2023-yil 31-mart - Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida O‘zRVBning 2022 yildagi faoliyatiga bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.

2023-yil 25-aprel - O‘zRVB a’zoligiga “Smart Bank”, “APEX BANK”, “HAYOT BANK” va “YANGI BANK” aksiyadorlik jamiyatlari qabul qilindi.

2023-yil 16-18-may - O‘zRVB Bosh direktori Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruvchilar Kengashining 32-nchi yillik yig‘ilishida va biznes-forumda ishtirok etdi.

2023-yil 19-may - O‘zRVBga SWIFT xalqaro tizimida BIC kodi berildi.

2023-yil 25-aprel - “One-click” – O‘zRVBning REPO bozorida amalga oshirilgan operatsiyalar natijalariga ko‘ra to‘lov hujjatlarini shakllantirish va uzatishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirildi.

2023-yil 28-aprel - O‘zRVB “KASE day in Tashkent” konferensiyasida ishtirok etdi.

2023-yil 9-iyun - “Portfolio Investments” investitsiya kompaniyasi “B” toifasi bo‘yicha O‘zRVB a’zolari tarkibiga qabul qilindi.

2023-yil 30-iyun-7-iyul – Bloomberg L.P. kompaniyasining taklifiga binoan O‘zRVB delegatsiyasining London shahriga tashrifi bo‘lib o‘tdi.

2023-yil 5-iyul - Bloomberg L.P. kompaniyasining Londondagi bosh ofisida O‘zRVB birja ma’lumotlarini kompaniya platformasi orqali tashqi foydalanuvchilarga uzatish to‘g‘risida bitim imzolandi.

2023-yil 19-avgust - O‘zRVBning yangi sayti ishga tushirildi.

2023-yil 7-sentyabr - O‘zRVB CBonds-Congress kompaniyasining “O‘zbekiston Respublikasi kapital bozori” V xalqaro konferensiyasida ishtirok etdi.

2023-yil 22-28-oktyabr - O‘zRVB vakillarining “Moskva birjasi” guruhiga kiruvchi tashkilotlarga ishchi tashrifi bo‘lib o‘tdi.

2023-yil 13-17-noyabr - O‘zRVB delegatsiyasi Olmaota shahrida o‘tkazilgan MDH davlatlari birjalari xalqaro assotsiatsiyasining umumiy yillik yig‘ilishida, Xalqaro birja forumida, shuningdek “Qozog‘iston fond birjasi” AJning 30-yilligi tantanalarida ishtirok etdi.

2023-yil 7-noyabr - O‘zRVB ta’sischiligida “Milliy kliring markazi” AJ tashkil etildi.

2023-yil 8-noyabr - “Milliy kliring markazi” AJ davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

2023-yil 23-oktyabr - “Toshkent” Respublika fond birjasi a’zolarini O‘zRVB a’zoligiga qabul qilishning yagona soddalashtirilgan tartibi tasdiqlandi.

2023-yil 4-dekabr - Refinitiv kompaniyasi bilan World-Check ma’lumotlar bazasidan foydalanish bo‘yicha bitim imzolandi.

2023-yil 29-dekabr - O‘zRVB a’zolari tarkibiga “Leader Finance Capital”, “Premium Finance”, “Satori Capital”, “Toshkent Investitsiya Majmui” brokerlik kompaniyalari qabul qilindi.

Moliyaviy natijalar sharhi

O‘zRVBning moliyaviy hisobotlari O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi va hisoboti to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tayyorlanadi.

O‘zRVB tomonidan to‘lanadigan soliqlar:

Soliq turi	Stavka
Daromad solig‘i	15%
Mulk solig‘i	1,5%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	belgilangan me’yorlarga muvofiq
Er solig‘i	belgilangan me’yorlarga muvofiq
Dividend solig‘i	5%
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	12%

Soliq kodeksining 37-bobining 209-moddasiga asosan O‘zRVBning quyidagi moliyaviy xizmatlari qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan:

- ✓ *milliy va xorijiy valyutadagi operatsiyalar;*
- ✓ *kliring operatsiyalari;*
- ✓ *chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;*
- ✓ *pul mablag‘larini konvertatsiya qilish bo‘yicha operatsiyalar;*
- ✓ *qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan operatsiyalar.*

Hisobot yili yakunlari bo‘yicha O‘zRVBda muddati o‘tgan majburiyatlar (kreditorlik va debitorlik qarzlariga) mavjud emas.


2023 yilda O‘zRVB xarajatlarni qat’iy nazorat qilish siyosatini amalga oshirishni davom ettirib, birja instrumentlarini diversifikatsiya qilish orqali komissiya daromadlarini oshirish strategiyasiga amal qildi.

Jami daromad (foyda va zarar) to‘g‘risidagi hisobot

Daromadlar. O‘zRVB daromadlarining asosiy manbalari bo‘lib birja savdolarini tashkil etishdan olinadigan vositachilik mukofoti, shuningdek O‘zRVB bo‘sh pul mablag‘larini tijorat banklarining qisqa muddatli depozitlariga aktivlariga joylashtirishdan olinadigan foizli tushumlar hisoblanadi.


2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zRVB daromadlari tarkibida vositachilik mukofoti ulushi 88,30 foizni tashkil etdi. Foiz va boshqa daromadlarning ulushi mos ravishda 11,38% va 0,32% ga teng bo‘ldi.

Daromad tarkibi



O‘zRVBning 2023-yilgi biznes-rejasiga muvofiq jami daromad hajmi 86 684,50 mln.so‘m miqdorida rejalashtirilgan. Haqiqatda, hisobot yili yakunlari bo‘yicha O‘zRVBning jami daromadi 103 523,69 mln. so‘mni tashkil etib, biznes-reja ko‘rsatkichlariga nisbatan 19,43 foizga yoki 16 839,19 mln. so‘mga oshdi.

2023-yil uchun jami daromad ko‘rsatkichlari



Biznes-rejaga muvofiq 2023-yil uchun valyuta bozori daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari 63 750,00 mln.so‘m darajasida ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu 2022-yil biznes-rejasida belgilangan mos ko‘rsatkichdan 63,04 foizga ko‘pdir. 2023-yilda valyuta bozori bo‘yicha daromadlar prognoz ko‘rsatkichlarining haqiqatda bajarilishi 73 345,45 mln.

so‘mni tashkil etib, 2023-yilgi biznes-rejadagi prognoz ko‘rsatkichidan 9 595,45 mln. so‘mga oshdi.

Shuningdek, hisobot yilida pul bozorida savdolarni tashkil etishdan tushgan daromadning 2022-yilgi mos ko‘rsatkichiga nisbatan sezilarli o‘sishi (97,58%) kuzatildi. Shu bilan birga, qarz bozorida hisobot yilida savdolarni tashkil etishdan tushgan daromad 2022-yilga nisbatan 40,31 foizga kamaydi.

2023-yilda O‘zRVB bo‘sh pul mablag‘larini tijorat banklarida qisqa muddatli depozitlarga joylashtirishdan olinadigan daromadning prognoz hajmi 2022-yilgi mos ko‘rsatkichiga nisbatan 6,48 foizga ko‘proq yoki 8 625,00 mln.so‘m miqdorida belgilangan.

2023-yilda O‘zRVB mablag‘larini joylashtirishdan haqiqatda olingan daromadlar prognoz ko‘rsatkichdan 3 154,72 mln. so‘mga yoki 36,58 foizga, 2022-yilning haqiqatdagi hajmlarga nisbatan esa 43,48 foizga oshdi.

2023-yil yakunlari bo‘yicha O‘zRVBning jami daromadi 2022-yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 17,49 foizga yoki 15 411,84 mln. so‘mga oshdi.

2022-2023-yillardagi jami daromad tarkibi, mln so‘mda

Ko‘rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	23/22-y.	o‘zgarish
valyuta bozori	57 290,71	73 345,45	16 054,73	28,02%
pul bozori	3 402,32	6 722,16	3 319,85	97,58%
qarz bozori	19 006,75	11 344,53	-7 662,22	-40,31%
derivativlar bozori	0,00	0,63	0,63	
foizli daromadlar	8 210,09	11 779,72	3 569,63	43,48%
boshqa daromadlar	201,98	331,20	129,22	63,98%
Jami	**88 111,85**	**103 523,69**	**15 411,84**	**17,49%**

Komissiya daromadlari hajmining dinamikasi, mlrd. so‘mda



Xarajatlar. 2023-yilda O‘zRVB umumiy xarajatlarining prognoz hajmi 40 445,5 mln. so‘m darajasida belgilangan bo‘lib, haqiqatda qilingan xarajatlar hajmi 32 501,1 mln. so‘mni tashkil etdi. Natijada, 2023-yil yakunlari bo‘yicha tejalgan mablag‘lar miqdori 7 944,4 mln so‘mga teng bo‘ldi.


“O‘zRVB” AJning 2023-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy-iqtisodiy smetasi bajarilishi

mln. so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	*2023-yil*		
		prognoz	*haqiqatan*	*farqi*
1	**Daromadlar, jami** shu jumladan:	**86 685**	**103 524**	**16 839**
	sof tushum	78 060	91 413	13 353
	boshqa daromadlar	-	331	331
	moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar	8 625	11 780	3 155
2	**Ishlab chiqarish qiymati**	**8 761**	**7 037**	**-1 724**
3	**Davr xarajatlari**	**31 684**	**25 461**	**-6 223**
	sotish xarajatlari	6 603	6 367	-236
	ma’muriy xarajatlar	13 265	9 372	-3 893
	boshqa operatsion xarajatlar	11 816	9 722	-2 094
4	**Moliyaviy faoliyat xarajatlari**	**0,4**	**3,3**	**-2,9**
	foiz shaklida xarajatlar	-		
	valyuta kursidagi farq tufayli zarar	0,4	3,3	-2,9
	moliyaviy faoliyat bo’yicha boshqa xarajatlar	-		
5	**Daromad solig‘ini to‘lashdan oldin daromad (zarar)**	**46 240**	**71 023**	**24 783**
6	**Daromad solig‘i (foyda)**	**6 936**	**11 360**	**4 424**
7	**Sof foyda (zarar)**	**39 303**	**59 663**	**20 360**
8	**EBITDA ko‘rsatkichi**	**37 614**	**59 580**	**21 966**

Operatsion faoliyat natijalari

2023-yil yakunlariga ko‘ra sof foyda 59 662,51 mln. so‘mni tashkil etib, 2022-yilgi mos ko‘rsatkichga nisbatan 8 221,97 mln. so‘mga, 2023-yilgi prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan esa 20 359,51 mln. so‘mga oshdi. Shu bilan birga, hisobot yilida soliqdan oldingi foyda 71 022,54 mln. so‘mni tashkil etib, 2022-yilgi mos ko‘rsatkichga nisbatan 10 173,13 mln. so‘mga va 2023-yilgi prognoz ko‘rsatkichlarga nisbatan 24 783,53 mln. so‘mga oshdi.



Birja bozorlari sharhi

2023-yilda O‘zRVBning yangi birja bozorlarini tashkil etish, savdo hajmlarining barqaror o‘sishini ta’minlash maqsadida ilg‘or xalqaro tajriba asosida zamonaviy, ilg‘or birja mexanizmlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ishlar davom ettirildi.

Hisobot yili O‘zRVBning barcha segmentlarida ijobiy natijalar bilan yakunlandi. O‘zRVB bozorlarida savdo ishtirokchilari faolligi oshishi natijasida operatsiyalar hajmi rekord darajada o‘sishi kuzatildi.

O‘zRVB savdo-dasturiy kompleksining takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar barcha birja segmentlarida operatsiyalarni o‘tkazish texnologiyasini hamda hisob-kitob-kliring jarayonini modernizatsiya qilishga imkon berdi.

O‘zRVB savdo ishtirokchilariga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va birja bozori infratuzilmasini rivojlantirish bilan bir qatorda, likvidlik hajmining o‘sishini rag‘batlantirish yo‘nalishida tarif siyosatini takomillashtirishni davom ettirdi.

Bunda, REPO bozorining jozibadorligini oshirish va savdo ishtirokchilari uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida 2023-yil 1-maydan 30-iyungacha dilerlararo REPO bitimlari bo‘yicha vositachilik mukofotini undirmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilindi.


Hisobot yilida O‘zRVBda birja savdolari hajmining o‘sishi o‘zining maksimal darjasiga yetib, 999,52 trln. so‘mni tashkil etdi, bu esa 2022-yilgi mos ko‘rsatkichdan (706,79 trln. so‘m) 41,42 foiz ko‘pdir.

O‘zRVB bozorlari kesimida 2023-yilda valyuta bozorida savdolar hajmi 2022-yil ko‘rsatkichlariga nisbatan 35,43 foizga, pul bozorida 77,99 foizga oshgan bo‘lsa, qarz bozorida Markaziy bank obligatsiyalari chiqarilishining 2022-yil ko‘rsatkichlariga nisbatan uch barobar qisqarganligi munosabati bilan 39,78 foizga kamaydi.

So‘nggi bir necha yil ichida O‘zRVB birja instrumentlarini diversifikatsiyalash bo‘yicha chora-tadbirlar birja bozorlarining savdolar umumiy hajmidagi ulushiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

2023-yil yakunlariga ko‘ra, valyuta bozorining savdolar umumiy hajmidagi ulushi 45,82 foizni (2022-yilda - 47,85 foiz), pul bozorining ulushi 48,31 foizni (38,39 foiz) va qarz bozorining ulushi 5,86% (13,77%) ni tashkil etdi.


2022-2023-yillarda birja bozorlari ulushi




2022-2023-yillarda savdo hajmi, trln. so‘mda

Birja bozorlari	2022-y.	2023-y.	o‘sish	
			trln. so‘mda	foizda
Savdolar umumiy hajmi	**706,79**	**999,52**	**292,73**	**41,42%**
Valyuta bozori	**338,18**	**458,00**	**119,82**	**35,43%**
spot	338,18	458,00	119,82	35,43%
Pul bozori	**271,31**	**482,90**	**211,58**	**77,99%**
valyutaviy svop	0,16	0,48	0,32	200,33%
banklararo pul bozori	147,82	310,78	162,96	110,24%
depozit auksionlari	122,79	94,49	-28,29	-23,04%
REPO bitimlari	0,54	77,14	76,60	v 143 raza
Qarz bozori	**97,29**	**58,59**	**-38,70**	**-39,78%**
birlamchi	87,29	47,30	-39,99	-45,81%
ikkilamchi	10,00	11,29	1,28	12,82%
Derivativlar bozori	0,00	0,04	0,04	-
valyutaviy fyucherslar	0,00	0,04	0,04	-

2021-2023-yillarda savdolar umumiy hajmi dinamikasi, trln. so‘mda



2021 – 2023-yillarda bozorlar kesimida savdolar hajmi dinamikasi, trln. so‘mda



Valyuta bozori


O‘zRVB valyuta bozori republika moliya tizimining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri, milliy va xorijiy valyutalar bilan operatsiyalar bo‘yicha likvidlik markazi xisoblanib, Markaziy bankka samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirish uchun birja valyuta bozorini tashkil etishda ko‘maklashadi.

Hisobot yilida valyuta spot bozorida savdolarning umumiy hajmi 2022-yilning mos ko‘rsatkichlariga nisbatan 35,43 foiz yoki 119,82 trln.so‘mga oshib, 458,00 trln. so‘mni tashkil etdi.

AQSh dollari – so‘m. Valyuta juftliklari savatida hisobot davrida AQSh dollari/so‘m instrumentining ulushi valyuta savdolarining umumiy hajmining 99,97 foizini tashkil etib, 457,87 trln. so‘mga teng bo‘ldi.

Hisobot davrida savdolar hajmi AQSh dollari ekvivalentida 38,97 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 27,62 foizga yoki 8,44 mlrd. AQSh dollarga oshdi.


2022-2023-yillar bo‘yicha savdolar hajmi, mlrd. AQSh dollarida



Markaziy bank tomonidan o‘tkazilgan iqtisodiy sharoitlar va pul-kredit siyosati tahliliga ko‘ra, 2023-yilda mamlakatga pul o‘tkazmalari, eksport tushumlari va bank depozitlari ko‘rinishidagi valyuta oqimlarini ko‘paytirish tendensiyasi saqlanib qoldi.

Yevro – so‘m. 2023-yilda tijorat banklarining birjadan tashqari operatsiyalari hajmining oshishi munosabati bilan o‘tgan yilgi ko‘rsatkichlarga nisbatan “yevro – so‘m” juftligi bo‘yicha savdolar hajmining pasayishi kuzatildi. Shunga ko‘ra, hisobot yilida yevro bo‘yicha savdolar hajmi 4,70 mln. yevroni tashkil etib, 2022-yilgi ko‘rsatkichga (13,78 mln. yevro) nisbatan 65,89 foizga kamaydi.

2022-2023-yillarda yevrodagi savdolar hajmi, mln. yevroda




Rossiya rubli - so‘m. 2023-yilda ushbu valyuta juftligi bo‘yicha savdolar hajmi 573,10 mln. rossiya rublini tashkil etib, 2022-yildagi mos ko‘rsatkichga nisbatan 19,40 foizga ko‘p bo‘ldi.

Kurs dinamikasi

Birja savdolarida milliy valyuta kursining dinamikasi valyuta bozorida talab va taklif nisbati asosida ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllandi.

2023-yil davomida milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan qiymati yil boshiga nisbatan 9,67 foizga kamaydi (11 263,41 so‘mdan 12 352,86 so‘mgcha).




Pul bozori

Banklararo pul bozorida respublika tijorat banklarining pul mablag‘larini jalb qilish va joylashtirish bo‘yicha operatsiyalar, Markaziy bankning tijorat banklarining pul mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha depozit auksionlari, dilerlararo REPO bitimlari, shuningdek valyutaviy svop operatsiyalar o‘tkaziladi.

Pul bozori instrumentlari savdo ishtirokchilarida yuqori talabga ega va ularga qisqa muddatli aktivlarga joylashtirish orqali pul mablag‘larini samarali boshqarish imkonini beradi.


2023-yil yakunlariga ko‘ra pul bozorida savdolar umumiy hajmi 482,90 trln. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos ko‘rsatkichiga (271,31 trln. so‘m) nisbatan 78,00% ga oshdi.

Pul bozori tarkibi




Shu bilan birga, 2023-yilda banklararo pul bozorida savdolar hajmi 310,6 trln. so‘mga teng bo‘ldi, bu esa 2022-yil mos ko‘rsatkichlariga (147,82 trln. so‘m) nisbatan 2,1 barobar ko‘pdir.

2022-2023-yillarda banklararo pul bozorida savdolar hajmi dinamikasi, trln.so‘mda



2022-2023-yillarda savdolar umumiy hajmidagi standartlashtirilgan muddatlar ulushi



2023-yilda banklararo pul bozorida standartlashtirilgan muddatlar kesimida bir kunlik depozitlar ulushi (62,38%) yuqori bo‘lib, 2022-yil ko‘rsatkichiga nisbatan 0,2 foizga oshdi.


Shu bilan birga, hisobot yilida 2022-yilga nisbatan, bir kunlik (overnayt) banklararo depozitlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan stavka Markaziy bankning asosiy stavkasi yaqinida shakllandi.

2022-2023-yillarda banklararo pul bozorida bir kunlik depozitlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan stavka




Hisobot yilida Markaziy bankning depozit auksionlaridagi operatsiyalar hajmi 2022-yilgi ko‘rsatkichga (122,79 trln. so‘m) nisbatan 23,04 foiz yoki 28,3 trln. so‘mga oshib, 94,49 trln. so‘mni tashkil etdi.

Markaziy bankning depozit auksionlarida jalb qilingan mablag‘lar hajmi, trln. so‘mda



2023-yilning 1-choragida Markaziy bankning depozit auksionlarida o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari 15 foiz atrofida shakllanib, keyinchalik yil davomida Markaziy bankning asosiy stavkasi (14%) yaqinida shakllanib bordi.


2022-2023-yillarda Markaziy bankning depozit auksionlarida o‘rtacha tortilgan stavka



2023-yil yakunlariga ko‘ra, dilerlararo REPO operatsiyalari hajmi 77,14 trln. so‘mga teng bo‘lib, 2022-yilgi mos ko‘rsatkichiga (0,54 trln. so‘m) nisbatan 142 barobar oshdi.

Dilerlararo REPO operatsiyalarining umumiy hajmida 1 kundan 7 kungacha bo‘lgan bitimlar ulushi yuqori bo‘lib, 97,55 foizni tashkil etdi.

2023-yil yakunlari bo‘yicha dilerlararo REPO bitimlari tarkibi



Davlat qimmatli qog‘ozlari bozori


Asosiy birja bozorlaridan biri bo‘lgan davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan chiqariladigan kuponli va diskontli davlat g‘azna majburiyatlari va obligatsiyalari, shuningdek Markaziy bank obligatsiyalari bilan birlamchi va ikkilamchi savdolar tashkil etiladi.

2023-yil yakunlari bo‘yicha DQQ bozorida savdolar umumiy hajmi 58,59 trln.so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos ko‘rsatkichiga nisbatan 39,78 foizga yoki 38,70 trln. so‘mga pasaydi.

Emitentlar kesimida Iqtisodiyot va moliya vazirligining tomonidan chiqarilgan DQQ bilan savdolar hajmi 32,61 trln. so‘mga teng bo‘ldi va 2022-yilning mos ko‘rsatkichiga nisbatan o‘sish 153,94 foizni (12,84 trln. so‘m) tashkil etdi.

Qarz bozorida savdolar hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib Markaziy bank obligatsiyalari chiqarilishi hajmining pasayishi hisoblanadi. 2022-yilda Markaziy bank obligatsiyalari bilan operatsiyalar hajmi 84,45 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, hisobot yili yakunlariga ko‘ra mos ko‘rsatkich 25,98 trln.so‘mga teng bo‘lib, 2022-yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 69,24 foizga kamaydi.


2023-yilda DQQ emitentlari bo‘yicha savdolar umumiy hajmi dinamikasi



Savdolar umumiy hajmi tarkibida birlamchi joylashtirish ulushi 80,74 foizni (47,30 trln. so‘m), ikkilamchi savdolar ulushi esa 19,26 foizni (11,29 trln. so‘m) tashkil etdi.

Shu bilan birga, hisobot yilida DQQni joylashtirish tarkibida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan DQQ ulushi 50,97 foizni (24,11 trln. so‘m), Markaziy bank obligatsiyalari ulushi 49,03 foizni (23,19 trln. so‘m) tashkil etdi.

2023-yilda DQQ bozori tarkibi




2023-yilda emitentlar kesimida DQQ chiqarilishi tarkibi



2023-yil davomida 59ta auksion o‘tkazilgan bo‘lib, ular natijasida Iqtisodiyot va moliya vazirligining nominal qiymati 24,83 trln.so‘mlik obligatsiyalari joylashtirildi, bunda savdolar hajmi 24,11 trln. so‘mni tashkil etdi.


DQQni joylashtirishda o‘rtacha tortilgan daromadlilik 15,91 foizdan 18,19 foizgacha bo‘lgan oraliqda o‘zgarib turgan. Hisobot davrida bitta auksionda joylashtirilgan hajmlar 34,48 mlrd.so‘mdan 2 867,39 mlrd. so‘mgacha bo‘ldi.

2023-yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat qisqa muddatli majburiyatlari bo‘yicha savdolar hajmi va daromadliligi



2023-yilgi tahlil natijalariga ko‘ra, DQQni joylashtirish tarkibida muomala muddati bir yilgacha bo‘lgan DQQni ulushi yuqori bo‘lib, savdolar umumiy hajmining 67,36 foizini tashkil etdi.

Muomala davri bo‘yicha DQQ chiqarilishi tarkibi



Depozitar faoliyat

2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, O‘zRVB depozitariysi hisob registrlarida nominal qiymati bo‘yicha saqlanayotgan DQQ hajmi 2022 yil ko‘rsatkichiga nisbatan 5,75 foizga kamayib, 26 142,36 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Hisobot yilida muomala davri bir yilgacha bo‘lgan DQQ ulushi yuqori bo‘ldi. Shunga qaramay, o‘rta va uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarning muomaladagi ulushi oshdi.

2022-2023-yillarda O‘zRVB depozitariysida hisobga olingan muomaladagi DQQ hajmi

mlrd. so‘mda

Muomala davri	2022-yil 31-dekabr holatiga	2023-yil 31-dekabr holatiga	O‘zgarish
3 oygacha	14 700,00	4 675,86	-68,19%
3 oydan 6 oygacha	4 303,38	2 101,73	-51,16%
6 oydan 1 yilgacha	3 592,30	0,00	-100,00%
1 yildan 5 yilgacha	4 832,22	17 855,22	269,50%
5 yildan 10 yilgacha	310,00	1 509,55	386,95%
Jami	**27 737,90**	**26 142,36**	-5,75%

2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra emitentlar kesimida O‘zRVB depozitariysida hisobga olingan muomaladagi DQQ hajmi

mlrd. so‘mda

Muomala davri	Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan DQQ	Markaziy bank obligatsiyalari	Jami
3 oygacha	0,00	4 675,86	4 675,86
3 oydan 6 oygacha	2 101,73	0,00	2 101,73
6 oydan 1 yilgacha	0,00	0,00	0,00
1 yildan 5 yilgacha	17 855,22	0,00	17 855,22
5 yildan 10 yilgacha	1 509,55	0,00	1 509,55
Jami	**21 466,50**	**4 675,86**	**26 142,36**

Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurash

Korporativ boshqaruvining ilg‘or amaliyotlarini joriy etish, tashkilot faoliyatining qonunchilik talablariga muvofiqligini nazorat qilish zarurati hamda tashqi tahdidlar O‘zRVBga komplayens sohasida samarali siyosatni joriy etish uchun omil bo‘ldi. Bugungi kunda O‘zRVBning komplayens siyosatiga rioya qilish doirasidagi asosiy maqsadlari bo‘lib biznes etikasi va tashkilot qadriyatlarining yuqori standartlariga muvofiq faoliyatni amalga oshirish, xodimlar manfaatlari to‘qnashuvining oldini olish, komplayens madaniyatini joriy etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi siyosat yo‘nalishining ustuvorligini, shuningdek, O‘zRVBning xalqaro maqomi va ijobiy imijini mustahkamlash, birja bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida O‘zRVBning xalqaro maydonda olib borayotgan faoliyatini hisobga olgan holda, O‘zRVBda korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratining samarali tizimi joriy etildi.

O‘zRVB tashkiliy tuzilmasida Yuridik ta’minot va komplayens-nazorat bo‘limi tashkil etilgan bo‘lib, O‘zRVB xodimlarining korporativ etika va xulq-atvor normalari kodeksi, O‘zRVBning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Korrupsiyaga qarshi kurashish xatarlarini baholash metodikasi tasdiqlandi, O‘zRVB xodimlarini axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohalarida o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqildi.

Bo‘limning asosiy vazifalariga korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari va tashkilotdagi ichki normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar va harakatlar rejasini ishlab chiqish, ularning to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash, O‘zRVB xodimlarining xatti-harakatlaridagi korrupsiya tahdidlari va qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi shikoyatlar va anonim xabarlarni ko‘rib chiqish hamda tegishli choralar ko‘rish kiradi.

Bo‘lim, shuningdek, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va rahbariyatga tasdiqlash uchun kiritadi, ularning komplayens ekspertizasini o‘tkazadi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga olib kelgan sharoitlar va sabablarini o‘rganadi, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

Bo‘lim muntazam ravishda xodimlar bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazadi, korrupsiyaga qarshi kurashish va tashkilot ichidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish masalalari bo‘yicha seminarlar, vebinarlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi.

Ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik

Bugungi kunda O‘zRVB ommaviy axborot vositalari orqali tashkilot faoliyatini keng yoritish, shuningdek, o‘z resurslari, shu jumladan birja faoliyatiga bag‘ishlangan taqdimot materiallari va videolavhalardan foydalangan holda faol PR kampaniyasini olib bormoqda.

Hisobot yilida ham turli telekanallarda muntazam ravishda teleko‘rsatuvlar namoyish etilib, birjaning mas’ul xodimlari ishtirokida O‘zRVB faoliyati to‘g‘risida matbuot anjumanlari, brifinglar o‘tkazib kelindi. Muntazam ravishda birja ma’lumotlari, turli infografikalar O‘zRVB rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda joylashtirib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-yil 31-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida O‘zRVBning 2022-yildagi faoliyatiga va istiqboldagi rejalariga bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.

Tadbir davomida O‘zRVB faoliyati natijalari, birja bozorlari sharhi, 2022-yilda joriy etilgan yangi birja instrumentlari to‘g‘risida to‘htalib, O‘zRVB savdo platformalarini yanada raqamlashtirish va texnologik imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratildi.

Ijtimoiy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari doirasida O‘zRVB faoliyati bo‘yicha nashr etiladigan noto‘g‘ri va haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarga O‘zRVB rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar orqali rasmiy bayonotlar, javob va raddiyalarni e’lon qilish amaliyoti joriy etildi.

2023-yilda O‘zRVBning kommunikatsiyalarni rivojlantirish sohasidagi faoliyati O‘zRVB vakillari ishtirokidagi tadbirlarni muntazam yoritishga, birja va boshqa ma’lumotlarni keng jamoatchilikka, shu jumladan rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali yetkazishga qaratildi.

Bundan tashqari, hisobot yilida bugungi kundagi zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqib O‘zRVBning yangi rasmiy veb-sayti ishlab chiqildi, qulay va ixcham dizayn hamda intuitiv navigatsiyaga ega bo‘ldi, uning funksionalligi kengaytirildi, yangi bo‘limlar yaratilib, tegishli kontent bilan to‘ldirildi.

Kadrlar siyosati

O‘zRVB samarali faoliyatining muhim omili bo‘lib xodimlarning har tomonlama salohiyatini kashf etish, ularning doimiy kasbiy rivojlanishi, shuningdek, tashkilotga tajribali va yosh mutaxassislarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan kadrlar siyosati hisoblanadi.

O‘zRVB kadrlar siyosati quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

xodimlarni tanlash va rag‘batlantirish, yuqori malakali mutaxassislarni saqlash;

xodimlarni kasbiy o‘qitish va rivojlantirish;

xodimlarning salohiyatini kashf etish, yuqori natijalarga erishish va tashkilotning strategik maqsadlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi korporativ madaniyatni takomillashtirish.

Xodimlarni samarali boshqarishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib kasbiy va shaxsiy fazilatlar bo‘yicha kadrlarni tanlash va joylashtirish, bilim va tajriba uzluksizligi, ma’lum bir lavozimga tayinlash uchun xodimlar salohiyatini aniqlash, ularning sodiqligini oshirish va kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirish hisoblanadi.

O‘zRVBda olib borilayotgan kadrlar siyosati doirasida 2023-yilda quyidagi ishlar davom ettirildi:

O‘zRVB faoliyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasiga mutanosib ravishda xodimlarni rag‘batlantirish va mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish;

O‘zRVB kadrlar salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish, odob-axloq va korporativ etika kodeksini joriy etish;

kadrlar strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

asosiy xodimlar malakasini, shu jumladan korporativ boshqaruv sohasida muntazam ravishda oshirib borish;

birja savdolarini rivojlantirish sohasida yetakchi xorijiy birjalar va moliya tashkilotlari bilan tajriba almashish.

Shuningdek, tashkilot asosiy xodimlarining, shu jumladan korporativ boshqaruv sohasida malakasini oshirishga, kadrlarni tayyorlash va uzluksizligi tizimini takomillashtirishga, istiqbolli yosh mutaxassislarni o‘qitishga, ularning salohiyatini O‘zRVB oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda qo‘llanishiga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zRVB kadrlar siyosati xodimlarni tanlash va qabul qilish tizimi, ularni rag‘batlantirish va baholash dasturi, xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish, shuningdek, adolatli ish haqi tizimini yaratishni o‘z ichiga olgan standartlarni joriy etish orqali professional xodimlardan iborat yagona kross-funksional jamoani shakllantirishga qaratilgan.

Kadrlar siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

ishga nomzodlarni qabul qilishda teng imkoniyatlarni taqdim etish, xodimlarni tanlash, yollash va ularni rotatsiya qilishda xolislikni ta’minlash;

kadrlar tanlashning ko‘p bosqichli tizimini joriy etish orqali kadrlar tarkibi sifatini oshirish, kadrlarning o‘qish, malaka oshirish va boshqa yo‘nalishlarga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganish;

xodimlar uchun ularning raqobatbardoshligini oshiradigan rivojlanish va malaka oshirish, doimiy o‘qitish imkoniyatlarini, shu jumladan moslashuvchan bandlik va ta’til tizimini ta’minlash, shuningdek munosib ish haqini ta’minlash;

xodimlarni ularning rivojlanishi, malaka va raqobatbardoshligini oshirishi uchun doimiy o‘qitish, munosib ish haqi bilan ta’minlash hamda ish bilan ta’minlash va ta’tilga chiqish moslashuvchan tizimini taqdim etish;

tashkilotning rivojlanishiga qo‘shgan hissasiga mutanosib ravishda ishchilar mehnatiga haq to‘lashning ilg‘or xorijiy tajriba asosida xodimlarning adolatli ish haqi va samarali motivatsiya tizimini tadbiq etish.

Kadrlar siyosatining maqsadlari

O‘zRVB kadrlar siyosatining asosiy maqsadi bo‘lib qulay mehnat sharoitlarini yaratish asosida tashkilotning joriy va strategik vazifalarini amalga oshirishda xodimlarning to‘liq va samarali ishtirokini ta’minlash, xodimlar manfaatlari va ehtiyojlariga muvozanatli yondashuvni amalga oshirish hisoblanadi.

Kadrlar siyosatining iqtisodiy maqsadiga muvofiq, bir tomondan kadrlar salohiyatini rivojlantirish uchun xarajatlar nisbatlarini optimallashtirishga va tashkilotni rivojlantirishga hamda boshqa tomondan maksimal foyda olishga qaratilgan qarorlar qabul qilinadi.

Shu bilan birga, har bir xodimning ijtimoiy qadriyatlari va farovonligiga e’tibor qaratish O‘zRVBda olib borilayotgan **kadrlar siyosatining ijtimoiy maqsadi** hisoblanadi.

Ijtimoiy maqsadga erishish uchun O‘zRVBda ish hajmiga mutanosib adolatli ish haqi tizimini yaratish bo‘yicha, mehnatga haq to‘lashning oqilona tizimi doirasida rag‘batlantirish va cheklovlar, vazifalar, majburiyatlar va ko‘rsatkichlarni, shuningdek mehnat samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda tegishli chora-tadbirlar majmui amalga oshirilmoqda.

Kadrlar statistikasi

2023-yili boshiga O‘zRVB xodimlari soni 55 kishi, hisobot yilining 31-dekabr holatiga esa 62 kishini tashkil etdi.

O‘zRVB xodimlarining umumiy sonidan 19 kishi - rahbar xodimlar, 16 kishi - mutaxassislar, 22 kishi - operatsion xodimlar, 1 kishi - texnik va 4 kishi - xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar hisoblanadi.

Gender tarkib

2023-yil yakuniga ko‘ra hodimlar umumiy sonidan ayollar – 19 kishini (31 foiz), erkaklar – 43 kishini (69 foiz) tashkil etdi.

Xodimlar ma’lumoti

Hisobot davri yakuniga ko‘ra 62 xodimdan 54tasi oliy ma’lumotli, 8ta xodim – o‘rta maxsus va umumiy o‘rta ma’lumotga ega deb topildi.

O‘zRVB xodimlarining yosh bo‘yicha tarkibi:

30 yoshgacha - 17 kishi;

31 yoshdan 39 yoshgacha - 17 kishi;

40 yoshdan 49 yoshgacha - 19 kishi;

50 yoshdan 59 yoshgacha - 6 kishi;

60 yosh va undan katta - 3 kishi.

O‘zRVBda turli yoshdagi xodimlarning mavjudligi ishga qabul qilingan yangi xodimlarga tajribali mutaxassislardan murabbiylar tayinlash uchun imkon yaratdi.

Kadrlar siyosati doirasida O‘zRVB jamoaga iqtidorli va malakali xodimlarni jalb etish yuzasidan faol ish olib bormoqda. Yangi xodimlarni jamoada va ish joyida tezkor moslashishga ko‘maklashish maqsadida birjada welcome treninglarini o‘tkazish amaliyoti joriy etilgan bo‘lib, ular yangi xodimlarni kompaniyada faoliyatni muvaffaqiyatli boshlashi uchun barcha zarur bilim, vositalar va resurslar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan.

Bundan tashqari, 2023-yil davomida O‘zRVB talabalar va yosh mutaxassislarga kasb tanlash, amaliyot o‘tash, shuningdek, turli soha vakillaridan maslahatlar olishga ko‘maklashish maqsadida mahalliy oliy o‘quv yurtlarida o‘tkazilgan mehnat yarmarkalarida muntazam ishtirok etib keldi.

2023-yil davomida xodimlardan 16 kishi, shu jumladan 9 ayol O‘zRVBni tark etgan bo‘lsa, shtatga 18 nafar mutaxassis, shu jumladan 6 nafar ayol qabul qilindi.

Kadrlarni o‘qitish

Hisobot yilida sifatli ta’lim taqdim etish, xodimlar o‘rtasida erkin va ijodiy fikrlash, jamoaviy ish va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, birja savdolari ishtirokchilari va aholi o‘rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha ishlar davom ettirildi.

Mazkur ishlar doirasida O‘zRVB ta’lim markazi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirib kelindi, jumladan, O‘zRVB xodimlari va birja

savdolari qatnashchilarini o‘qitish va ularning malakasini oshirish, birja sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash maqsadida oliy o‘quv yurtlari bilan keng qamrovli hamkorlikni olib borish hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.


Hisobot yilida O‘zRVBning 23 nafar xodimi, shu jumladan 5 nafar ayol ta’lim muassasalarida pullik asosda o‘z malakasini oshirgan.

Bundan tashqari, 2023-yil davomida O‘zRVB xodimlari birja va moliya sohasini rivojlantirish, komplayens madaniyati, huquqiy savodxonlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha 14 dan ortiq o‘quv seminarlarida ishtirok etdilar.

Korporativ boshqaruv

O‘zRVB o‘z faoliyatini aksiyadorlik jamiyati shaklida amalga oshiradi. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi (Bosh direktor) boshqaruv organlari hisoblanadi.

«O‘zRVB» AJning tashkiliy tuzilmasi



Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi

Aksiyadorlar haqida ma’lumot:

Aksiyador nomi	Ustav fondidagi ulushi, foizda	Aksiyalar soni, (dona)
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki	50,13	536 200
“O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ	11,13	119 000
“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	11,13	119 000
“Agrobank” ATB	8,90	95 200
“Ipak yo‘li” AITB	8,90	95 200
XATB “Orient Finans Bank”	5,76	61 600
AT “Xalq banki”	4,05	43 400

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi O‘zRVBning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi (aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi) har yili 10-iyundan 30-iyungacha, moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida O‘zRVB Kuzatuv kengashi tarkibini saylash, shuningdek O‘zRVB yillik hisoboti, O‘zRVB Ijroiya organi va Kuzatuv kengashining O‘zRVB Rivojlanish strategiyasi maqsadlariga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlar ko‘rib chiqiladi.

2023-yil davomida O‘zRVB aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazildi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining 2022-yil yakunlari bo‘yicha yillik yig‘ilishi 2023-yil 23-may kuni hamda navbatdan tashqari yig‘ilishi 2023-yil 18-dekabr kuni bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishlarda qonunchilikda belgilangan tartibda hisobotlar, tashkiliy va boshqa masalalar ko‘rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi. Jumladan:

- O‘zRVB aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi reglamenti tasdiqlandi;

- O‘zRVB sanoq komissiyasi a’zolarining soni va shaxsiy tarkibi tasdiqlandi;

-“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ Kuzatuv kengashining 2022-yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha (shu jumladan, O‘zRVB strategiyasi maqsadlariga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi) hisoboti eshitildi va tasdiqlandi;

- “O‘zRVB” AJ tomonidan xayriya (homiylik) va boshqa xolis ko‘mak ko‘rsatilishining yuqori chegarasi O‘zRVBning 2022-yil uchun olingan sof foydasining 1 foizi miqdorida belgilandi;

- “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” davlat korxonasi tomonidan O‘zRVBda o‘tkazilgan 2022-yil uchun korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo‘yicha xulosasi ko‘rib chiqildi;

O‘zRVB Ijroiya organining 2022-yil uchun yillik hisoboti tasdiqlandi;

O‘zRVBning 2022-yil yakunlariga ko‘ra sof foyda aksiyadorlar o‘rtasida dividend sifatida taqsimlandi hamda qolgan pul mablag‘lari O‘zRVBda tuzilgan birja bitimlarini bajarilishini ta’minlash uchun shakllantirilgan Kafolat fondiga yo‘naltirildi;

- O‘zRVB Kuzatuv kengashining a’zolari saylandi;

- O‘zRVBning 2022-yil uchun moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni auditorlik faoliyati standartlari bo‘yicha majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish, shuningdek SMK, SYKning hisoblangan miqdorlarini tekshirish uchun “PKF MAK ALYANS” MChJ auditorlik tashkiloti bilan shartnoma tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi;

- “O‘zRVB” AJ Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlandi;

- “O‘zRVB” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi, “O‘zRVB” AJ Ijroiya organi to‘g‘risida”gi nizomlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar tasdiqlandi.

Kuzatuv kengashi

O‘zRVB aksiyadorlari vakillaridan iborat Kuzatuv kengashi “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq O‘zRVB faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

O‘zRVB Kuzatuv kengashi tarkibi:

№	F.I.O.	Lavozimi
1.	Abubakirov Bobir Yuldashovich	Kuzatuv kengashi raisi
2.	Adilov Alimardon Abdurazakovich	Kuzatuv kengashi a’zosi
3.	Ruziev Farrux Aralovich	Kuzatuv kengashi a’zosi
4.	Yakubov Shuxrat Israilovich	Kuzatuv kengashi a’zosi
5.	Kaxorov Erkin Azizjonovich	Kuzatuv kengashi a’zosi
6.	Mirtursunov Davron Shavkatovich	Kuzatuv kengashi a’zosi
7.	Djunaydullaev Toxir Faxriddinovich	Kuzatuv kengashi a’zosi

Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a’zolar ham kiritilishi mumkin.

Kuzatuv kengashi faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish Kuzatuv kengashi raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan uning tarkibidan Kuzatuv kengashiga saylangan a’zolar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi.

Kuzatuv kengashi a’zolari qonunchilikda va O‘zRVB ustavida belgilangan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi.

Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin.

Kuzatuv kengashi a’zolarining son tarkibi yetti kishini tashkil etadi.

Kuzatuv kengashining 2023 yildagi faoliyati

Hisobot yilida Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlik jamiyatini boshqarish bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarish, shu jumladan O‘zRVBni rivojlantirish strategiyasi doirasida chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

Kuzatuv kengashi faoliyati O‘zRVB faoliyatini rivojlantirishga, shu jumladan birja instrumentlarini yanada kengaytirishga, ichki hujjatlarni takomillashtirishga, shuningdek, O‘zRVB Ijroiya organining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilishga qaratildi.

Hisobot yilida O‘zRVB Kuzatuv Kengashining 22ta yig‘ilishi o‘tkazilgan bo‘lib, ko‘rib chiqilgan masalalar bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

Shu jumladan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 82-sonli qarori hamda Markaziy bank boshqaruvining 2023-yil 14-yanvardagi 1/5-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, DQQ bo‘yicha auksion natijalari hisob-kitoblarini T+2 hisob-kitob rejimida ham amalga oshirishni joriy qilish, O‘zRVBda REPO bitimlari bo‘yicha savdo va hisob-kliring jarayonlarini avtomatlashtirish, defolt-menejment mexanizmlarini joriy qilish, valyutaviy svop, valyutaviy fyuchers operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblarda “LIBOR” stavkasi o‘rniga “SOFR” stavkasini qo‘llash, valyutaviy fyuchers shartnomalarini sotib olish va sotishda to‘lanishi lozim bo‘lgan boshlang‘ich marja stavkasini 5 foizdan 2 foizgacha tushirish, O‘zRVBning a’zoligiga investitsiya vositachisi sifatida qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat yuritish huquqini olgan yuridik shaxslarni qabul qilish hamda chet ellik nominal saqlovchilarni va chet ellik investitsiya vositachilarni O‘zRVB a’zoligiga qabul qilish imkoniyatini yaratish maqsadida O‘zRVBning quyidagi ichki me’yoriy hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi:

- “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJda davlat qimmatli qog‘ozlari bilan savdolarni o‘tkazish qoidalari;

- “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki obligatsiyalari bilan savdolarni o‘tkazish qoidalari;

- “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJda davlat qimmatli qog‘ozlari bilan REPO bitimlarini tuzish va ijro etish qoidalari;

- “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyatiga a’zolik to‘g‘risidagi Nizom;

- O‘zRVBda vositachilik mukofoti (yig‘imlar)ni undirish tartibi;

- “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJda valyutaviy fyuchers shartnomasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha birja savdolari qoidalari.

2. Birja bozorlarida, hususan DQQ bozoridagi savdolar hajmining ijobiy tendensiyasini saqlash, savdo ishtirokchilarining ko‘nikmalarini shakllantirish, vositachilik mukofoti miqdorlarini optimallashtirish orqali savdolar hajmi oshishi va

ko‘lami kengayishini rag‘batlantirish maqsadida 2023-yil 1-maydan 2023-yil 30-iyunga qadar dilerlararo REPO operatsiyalari bo‘yicha vositachilik mukofotini undirmaslik bo‘yicha qaror qabul qilindi.

3. O‘zRVB xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarni samarali mehnat qilishga rag‘batlantirish hamda ish haqini adolatli hisoblash, xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ishga bo‘lgan tashabbuskorligini oshirish va ularni yanada rag‘batlantirish maqsadida “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi xodimlariga ish haqi to‘lash va ularning mehnatini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

4. 2022-yil uchun O‘zRVBda korporativ boshqaruv tizimini baholashni o‘tkazish maqsadida professional xizmatlarni taqdim etuvchi mustaqil tashkilotni tanlash uchun tanlov o‘tkazildi.

5. O‘zRVBning “A”, “B” va “C” toifalari bo‘yicha a’zoligiga tegishlicha “Smart Bank”, “APEX BANK”, “HAYOT BANK” va “YANGI BANK” aksiyadorlik jamiyatlari hamda “Portfolio Investments”, “Leader Finance Capital”, “Premium Finance”, “Satori Capital”, “Toshkent Investitsiya Majmui” MChJlari qabul qilindi.

6. O‘zRVB Ijroiya organining 2023-yil birinchi choragi, yarim yilligi va 9-oy natijalari bo‘yicha hisobotlari tasdiqlandi hamda O‘zRVB aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishini chaqirish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqildi.

7. O‘zRVB Ijroiya organi rahbari (Bosh direktor R.R. Usmanov) bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddati uzaytirildi hamda 2024-yil uchun biznes-reja tasdiqlandi.

Hisobot yilida Kuzatuv kengashi qarori bilan “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ ta’sischiligida “Milliy kliring markazi” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilishi ma’qullandi.

“Milliy kliring markazi” AJ ustav kapitali 5 mlrd.so‘m miqdorida belgilandi, shuningdek, uni O‘zRVB o‘z mablag‘laridan shakllantirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Shu bilan birga, “Milliy kliring markazi” AJ ustav kapitalining miqdori keyingi bosqichda 55 mlrd. so‘mgacha yetkazilishi e’lon qilindi. Ustav kapitalini O‘zRVBning kafolat fondi mablag‘lari hamda O‘zRVBning asosiy vositalari ko‘rinishidagi mol-mulklari, shu jumladan intellektual mulklari (O‘zRVBning hisob-kliring va boshqa dasturiy ta’minotlari)ni baholatgan holda ustav kapitaliga kiritish orqali shakllantirish bo‘yicha qaror qilindi.

O‘zRVB Kuzatuv Kengashining qarori bilan “Milliy kliring markazi” AJga Toshkent shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 4-uyda joylashgan O‘zRVB ma’muriy binosining bir qismini ijaraga berish to‘g‘risida shartnoma imzolandi.

Bundan tashqari, Kuzatuv kengashi 2023–2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” doirasida chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli

amalga oshirish uchun malakali maslahatchilar, shuningdek, yetakchi xalqaro konsalting tashkilotlarini jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son qaroriga muvofiq, 2023-yil 23-oktyabr kuni “Toshkent” Respublika fond birjasi AJ a’zolarini O‘zRVB a’zoligiga qabul qilishning yagona soddalashtirilgan tartibi tasdiqlandi.

Hisobot yilida Kuzatuv kengashi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda O‘zRVB Ijroiya organi tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorida axborotni oshkor qilish tamoiliga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirdi.

Shu bilan birga, aksiyadorlarga Ijroiya organining choraklik hisobotlari, moliyaviy hisobotlar, Kuzatuv kengashi majlislari qarorlaridan ko‘chirmalar va boshqa ma’lumotlar muntazam ravishda taqdim etib kelindi. Mazkur hisobotlar hamda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarini o‘tkazish va O‘zRVBning boshqa faoliyati bilan bog‘liq muhim faktlar muntazam ravishda korporativ axborotning yagona portalida va O‘zRVBning rasmiy veb-saytida joylashtirildi.

Ijroiya organi

O‘zRVBning joriy faoliyatiga rahbarlikni “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJning Ijroiya organi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq faoliyat ko‘rsatuvchi yagona Ijroiya organi - Bosh direktor amalga oshiradi.

O‘zRVB Bosh direktori Kuzatuv kengashi qarori bilan tayinlanadi. Bosh direktorni tayinlash to‘g‘risidagi qaror xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov asosida qabul qilinadi.

Bosh direktor vakolatlari, xususan, quyidagilardan iborat:

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

shtatlarni tasdiqlash, O‘zRVBning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar va ko‘rsatmalar chiqarish;

o‘z vakolatlari doirasida O‘zRVB ichki normativ hujjatlarini tasdiqlash;

O‘zRVB a’zolariga birja savdolarida qatnashish huquqini berish va savdolardan vaqtincha chetlashtirish, birja savdolarida qatnashayotgan xodimlarining (treyderlarning) kasbiy malakasini oshirishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

O‘zRVBning biznes xatarlarini va Ijroiya organining javobgarligini sug‘urtalash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi vakolatlariga kirgan masalalardan mustasno ravishda, O‘zRVBning joriy faoliyatiga rahbarlik qilishga doir boshqa masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish.

Shuningdek, Ijroiya organi Kuzatuv kengashiga O‘zRVB a’zolarini o‘z tarkibidan chiqarish masalalarini kiritadi hamda birja savdolarida qatnashayotgan O‘zRVB a’zolari treyderlarining kasbiy malakasini tekshiradi.